

**ADVOKATLIK FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHNING  
HUQUQIY ASOSLARI**

**Ergasheva Gulhayo O'tkir qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatini modernizatsiya qilishning normativ-huquqiy asoslari tahlil etiladi. Konstitutsiyaning XXIV bobi, Prezidentimizning 2018–2023-yillardagi farmon va qarorlari, hamda asosiy qonunchilik hujjatlari asosida advokatura sohasidagi uch qatlamli iyerarxik tuzilish ochib beriladi. Raqamli transformatsiya, davlat hisobidan yuridik yordam va xalqaro standartlar bilan muvofiqlik masalalari yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** advokatlik faoliyati, modernizatsiya, huquqiy asoslar, raqamlashtirish, Konstitutsiya XXIV bob, davlat hisobidan yuridik yordam, elektron order.*

**Аннотация.** В тезисе проводится анализ нормативно-правовых основ модернизации адвокатской деятельности в Республике Узбекистан. На основе главы XXIV Конституции, указов Президента за 2018–2023 годы и ключевых законодательных актов раскрывается трёхуровневая иерархическая структура правовой базы адвокатуры. Рассматриваются вопросы цифровой трансформации, бесплатной юридической помощи и соответствия международным стандартам.

**Ключевые слова:** *адвокатская деятельность, модернизация, правовые основы, цифровизация, глава XXIV Конституции, юридическая помощь за счёт государства, электронный ордер.*

**Annotation.** This thesis analyses the normative-legal foundations of the modernisation of advocacy in the Republic of Uzbekistan. Based on Chapter XXIV of the Constitution, presidential decrees and resolutions of 2018–2023, and key legislative acts, the three-tier hierarchical structure of the regulatory framework in the field of advocacy is examined. The thesis addresses issues of digital transformation, state-funded legal aid, and compliance with international standards.

**Keywords:** *advocacy, modernisation, legal foundations, digitalisation, Constitution Chapter XXIV, state-funded legal aid, electronic order.*

### **Kirish**

Har qanday institutni takomillashtirish jarayonining barqarorligi uning mustahkam huquqiy asosiga bog'liq. O'zbekistonda so'nggi o'n yil ichida advokatura sohasidagi qonunchilik bazasi tubdan yangilangan: 2023-yilgi Konstitutsiyaning yangi tahririda advokaturaga ilk bor alohida bob ajratildi, 2018-yildan boshlab esa bir qator strategik hujjatlar qabul qilinib, ushbu sohaning rivojlanishi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Mazkur o'zgarishlarning ilmiy tahlili va tizimlashtirilishi advokatura institutining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

**Tezisning asosiy muammosi shundan iboratki,** O'zbekistondagi advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimli va

kodifikatsiyalashgan mazmunga ega emas. Konstitutsiyaviy normalardan tartibiy-boshqaruv hujjatlarigacha cho'zilgan keng qonunchilik bazasi mavjud bo'lsa-da, ularni amaliyotda qo'llashda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bundan tashqari, advokatura sohasidagi normalarning iyerarxik tuzilishi ilmiy adabiyotlarda yetarlicha o'rganilmagan.

**Tezisning maqsadi** — O'zbekistonda advokatlik faoliyatini modernizatsiya qilishning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi normativ-huquqiy hujjatlar majmuini izchil tahlil qilish, ularning huquqiy bog'liqligini ochib berish va sohani yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Advokatlik faoliyatini modernizatsiya qilishning eng yuqori huquqiy asosi 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning XXIV bobi tarixda ilk bor advokaturaga alohida ajratilgan bo'lib, 141-modda advokatlik faoliyatining qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplarini belgilasa, 142-modda advokat va uning kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'lishini ta'kidlaydi. Bu konstitutsiyaviy mustahkamlash modernizatsiya islohotlarining barqaror davom etishining eng kuchli huquqiy kafolatidir.

Strategik maqsadlarni Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasi belgilab beradi. Strategiyada advokatura salohiyatini tubdan oshirish, ishga qabul qilish tartibini soddalashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish kabi aniq topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Bu hujjat advokatura sohasidagi islohotlarga davlat siyosati maqomini berdi va keyingi quyi darajadagi hujjatlar uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qildi.

Advokatura sohasidagi normativ bazaning asosini 1996-yil 27-dekabrda „Advokatura to’g’risida”gi Qonun va 1998-yil 25-dekabrda „Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to’g’risida”gi Qonun tashkil etadi. Birinchi Qonun advokatura institutining huquqiy asoslarini belgilasa, ikkinchi Qonun advokatning kasbiy himoyasi mexanizmini tartibga soladi. 2018, 2022 va 2023-yillardagi tahrirlar advokatlar sonini oshirish, elektron order va litsenziyalash tizimiga o’tish, nomzodlar uchun 2 yillik yuridik staj talabini bekor qilish kabi muhim innovatsiyalarni amalga oshirdi.

Advokatura tizimini tubdan isloh qilishning bevosita huquqiy-institusional asosi sifatida 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son Farmoni xizmat qildi. Uning ijrosi natijasida 2018–2022-yillarda O’zbekistondagi advokatlar soni ikki baravardan ziyod oshdi, advokatlik faoliyatining infratuzilmasi takomillashtirildi va adliya organlarining ortiqcha nazorat vakolatlari cheklandi. Bu Farmon advokatura institutining o’z-o’zini boshqarish tamoyillariga muvofiq faoliyat yuritishini kuchaytirish yo’nalishidagi qonunchilik islohotlarini boshlab berdi.

Raqamli transformatsiyaning normativ asosi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi „Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 263-sonli Qarori hisoblanadi. Mazkur Qaror litsenziyalashni «Litsenziya» axborot tizimi orqali avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshirish, advokatlik tuzilmalarini «yagona darcha» tamoyili asosida elektron ro’yxatdan o’tkazish, hamda QR-kod bilan jihozlangan elektron orderni qog’oz orderiga teng yuridik kuchga ega qilish

kabi normativ yangiliklar asosini tashkil etdi. Bu hujjat advokatlik faoliyatining raqamli ekotizimini yaratishning huquqiy poydevorini belgilab berdi.

2023-yil 16-iyundagi O'RQ-848-son Qonun avval tarqoq holda mavjud bo'lgan bepul yuridik yordam tartib-qoidalarini yagona qonunchilik hujjatiga jamladi. Normativ yangiligi shundaki, davlat hisobidan yuridik yordam jinoyat ishlaridan chiqib, fuqarolik va ma'muriy ishlarga ham kengaytirildi; advokatlarni jalb qilishda „Yuridik yordam“ axborot tizimi orqali tasodifiy elektron tanlash mexanizmi joriy etildi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi 774-son Qarori ushbu Qonunning amaliy mexanizmlarini batafsil tartibga soldi.

BMTning 1990-yilda Gavanada qabul qilingan „Yuristlar roliga oid asosiy prinsiplar“ hujjati advokatura qonunchiligining xalqaro me'yorlari sifatida tan olingan. Uning 2-prinsipi yuristlarga nohaq hujum va ta'qibdan himoya kafolatini, 3-prinsipi yuridik yordam uchun davlat moliyalashtirish majburiyatini, 8-prinsipi esa o'zi tanlagan yurist yordamiga murojaat qilish huquqi kafolatini belgilaydi. O'zbekiston qonunchiligi ushbu prinsiplarning barchasini o'z ichiga oluvchi normalar majmuini shakllantirgan.

Advokatura sohasidagi huquqiy bazaning umumiy tuzilishi uch qatlamli ierarxiyani tashkil etadi. Yuqori qatlam — konstitutsiyaviy va strategik hujjatlar (Konstitutsiyaning XXIV bobi va Taraqqiyot strategiyasining 19-maqsadi); o'rta qatlam — asosiy qonunlar (Advokatura to'g'risidagi Qonun, Kafolatlar to'g'risidagi Qonun, Davlat hisobidan yuridik yordam to'g'risidagi Qonun); quyi qatlam — farmonlar, qarorlar va idoraviy me'yoriy hujjatlar. Har bir pastki qatlam

yuqori qatlam bergan vakolatlar doirasida harakat qilib, tizimning ichki izchilligini ta'minlaydi.

**Xulosa.** Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda advokatlik faoliyatini modernizatsiya qilishning huquqiy asoslari tizimli, ketma-ket va o'zaro bog'liq holda shakllantirilgan. Konstitutsiyaviy darajadan tartibiy-boshqaruv darajasigacha cho'zilgan normalar majmui advokaturani an'anaviy nazorat tizimidan zamonaviy, mustaqil va raqamli texnologiyalarga asoslangan institutga aylantirishning huquqiy bazasini tashkil etadi. Shu bilan birga, advokatlik faoliyati to'g'risidagi normalarning yagona kodifikatsiyalashgan hujjatga jamlanmagani huquqiy bazaning muhim kamchiligi bo'lib qolmoqda.

Tahlil asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish va ularni tizimlashtirish;

raqamli transformatsiya bo'yicha alohida normativ hujjat — Elektron advokatura to'g'risidagi nizom — ishlab chiqish;

BMT prinsiplari asosida qonunchilikni yanada takomillashtirish orqali xalqaro huquqiy standartlar bilan to'liq muvofiqlikni ta'minlash.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2023, 82-bet.  
<https://lex.uz/docs/-6445145>

2. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda „Advokatura to'g'risida”gi 349-I Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-54503>
3. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi 721-I sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-29626>
4. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyunda "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi 848-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/6502543>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12- mayda „Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risid”gi 5441-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3731060>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda „2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-mayda „Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risid”gi 263-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6039334>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrda „Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqid,,gi 774-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7228726>

